
Mening do'stim - Vatan himoyachisi

Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filialida "Milliy armiyamiz - yoshlarning mardlik, matonat va jasorat maktabidir" shiori ostida "Mening do'stim - Vatan himoyachisi" deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi.

O'z xizmat vazifasini o'tayotgan oddiy askarlar "Toshkent-Farg'ona" teleko'prigi orqali ota-ona, do'st va yaqinlari bilan muloqot qildilar.

Ukam Ulug'bek Nosirov Toshkent shahrida yigitlik burchini o'tamoqda, - deydi Navro'za Fozilova. - U harbiy xizmatga yoshligidan qiziqadi. Sohaga oid kitoblarni o'qib, o'rgandi. Maqsadiga etib, hozirda Vatanga sidqidildan xizmat qilmoqda. Uning o'ziga bo'lgan ishonchi, qat'iyatini ko'rib, qalbim cheksiz sevinchga to'ldi.

Assalomu alaykum do'stim SHoxruh Ismoilov, - dedi diydor ko'rishib turganidan mamnun Jahongir Abdurasulov. - Sen bilan birga maktabga bordik, yoshlik damlarimizning quvonchini birga baham ko'rdik. O'qishda ham, ishda ham tengdoshlaringga doimo namuna bo'larding. Egningdagi harbiylik libosi juda yarashibdi. Havasim keldi. Men ham sendek harbiy askar bo'lishni ko'nglimga tugdim. Seni va barcha tengdoshlarimni 14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni bilan tabriklayman.

Yigit kishining mard va jasur bo'lib kamolga etishida harbiy xizmatning o'z o'rni bor, - deydi Xumoyun Mamaturaimovning dadasi O'rmonjon Rahmatullaev. - Ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, yuksak ma'naviy fazilatlar va mustahkam iroda bilan tarbiyalashga, jismoniy va jangovor tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Vatan himoyachilari safida o'g'lim ham borligidan cheksiz faxrlanaman.

- Farg'ona shahrida harbiy xizmatni o'tayotganimdan juda xursandman, - deydi oddiy askar Saidboriyxon Muxlisxodjaev, - Milliy kurash bilan shug'ullanib kelaman. Harbiy xizmat davomida ham tanlovlarda ishtirok etib, yutuqlarga erishdim. Xizmatni muvaffaqiyatli tugallab, universitetga o'qishga kirmoqchiman. YAngi texnologiyalarni yaratishga qiziqaman.

Tadbir davomida Vatan, ona-yurt, mard o'g'lonlarni madh etuvchi she'rlar yangradi. Elimiz suygan san'atkorlar Abdulhay Karimov Zuhridin Bozorboev tomonidan jarang sochgan kuy-qo'shiqlar barchani raqsga chorladi.

Tadbirda viloyat hokimi o'rinbosarlari I.Nosirov, S.Alimova, Oliy Majlis Senati a'zosi E.Siddiqova, "Nuroni" jamg'armasi viloyat bo'limi raisi T.Xoldorov, SHarqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining o'rinbosari, podpolkovnik SH.Abdullaev ishtirok etdi va so'zga chiqdi.

Kamola POLVONOVA.

Jahongir MIRZAMATOV olgan surat.

2018-01-10 16:45:53